

Butun jahon bolalar kunida quvonch ulashgan markaz



Butun jahon bolalar kunida quvonch ulashgan markaz

Bu kun 1954 yilda BMT tomonidan e'lon qilingan va yosh avlodning farovon hayotini ta'minlash uchun dunyo hamjamiyati e'tiborini jalb qilishga qaratilgan.

Shu munosabat bilan "Barqaror hayot" xalqaro ijtimoiy-ma'rifat markazi jamoasi ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun bayram tadbiri tashkil qildi.

Ushbu tadbirga kelgan bolajonlar uchun turli interaktiv o'yinlar, kichik sport musobaqalari tashkil qilindi. Shu kuni bolajonlar o'zlari sevgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanish imkoni ham yaratildi. Shu sabab kimdir rasm chizdi. Kimdur yozgan she'rini xatto o'qib ham berdi. Bayramda markaz jamoasi tomonidan bolajonlarga sovg'alar ulashildi.

Bayram sababchilari uchun yozilgan dasturxon atrofida tadbir davom etdi.

